

O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINING RIVOJLANISHI

Ortiqov Ulugbek Akrombek o'g'li
Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li

Toshkent Moliya Instituti o'qtuvchilari

Annotatsiya: *Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda maxsus investitsiya loyihalarini islomiy moliyaviy amaliyotini keng joriy qilish yo'lidagi muammolarni o'rganishdan iborat. Xususan, maqolada islom moliyasining mohiyati, ilmiy qarashlar, investitsiya loyihalarining tahlili, O'zbekistonda islom moliya tizimidagi muammolar va bu yo'nalishdagi empirik tajribalar ko'rib chiqilgan hamda xorijiy tajriba va O'zbekistonda olib borilgan tadqiqot natijalari nuqtai nazaridan islom moliyaviy xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlari: *Islom moliyasi, me'yoriy-huquqiy baza, MDH, O'zbekiston, ITB, XSRIK, investitsiya loyihalari*


Abstract: *The purpose of this article is to study the problems of the widespread introduction of Islamic financial practice in investment projects in Uzbekistan. In particular, the article discusses the essence of Islamic finance, scientific views, analysis of investment projects, problems in the Islamic financial system in Uzbekistan and empirical experience in this area, as well as recommendations for improving the use of Islamic financial services in terms of foreign experience and research in Uzbekistan.*

Key words: *Islamic finance, regulatory framework, CIS, Uzbekistan, IsDB, ICD, investment projects.*

KIRISH

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali usullarini milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etish, investitsion faoliyatda loyihaviy risklarni imkon darajasida pasaytirish, investitsion risklarni samarali boshqarish, resurslar taqchilligi sharoitida yirik investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni tashkil etish bugungikun moliya-bank sohasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bunda tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan islomiy moliya muassasalarining xizmatlaridan foydalanishni takomillashtirish natijasida moliyaviy xizmatlar sifatining oshishi, xususiy tarmoq vakillari salohiyatining o'sishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi hamda mamlakat iqtisodiyoti rivojiga hissa qo'shishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

• Ilmiy maqolada ko'tarilgan muammoni atloficha tahlil qilish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda (1-rasm) induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, iqtisodiy statistik kabi usullardan keng foydalanildi.




1-rasm. Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari

Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (2019) ma'lumotlariga ko'ra, 75 dan ortiq mamlakatlarda 500 dan ortiq islom banklari va islom banki bo'limiga ega taxminan 191 ta an'anaviy banklar mavjud [11].

2020 yil jahon iqtisodiyoti uchun eng qiyin yillardan biri bo'ldi. Yilning birinchi choragida COVID-19 birinchi marta bosh ko'targanida, hukumatlar moliyaviy noma'lum xavflarga duch kelishdi. Qiyinchiliklar ko'lamiga qaramay, islom moliya sanoati ketma-ket ikkinchi yil ham ikki xonali o'sishni qayd etib, 2020 yil oxiriga kelib 14 foiz o'sishni qayd etdi va 3,4 trillion dollarga yetdi (2-rasm).


Global islom moliya sanoati o'sish tendesiyasida davom etishi kutilmoqda vaayniqsa 2020-yildagi yuqori o'sish va 2021-yilgacha bo'lgan o'zgarishlar hisobgaolinsa, 2025-yilga borib jami global aktivlar 4,9 trillion AQSh dollariga yetishiprognoz qilinmoqda. Bu keyingi besh yil ichida o'rtacha 8 foizga o'sishini anglatadi. Ba'zi yirik islomiy moliya bozorlari bu ko'rsatkichni yuqoriroq ta'minlab hamberishi mumkin.



Islom moлияси бугунги кундагидек тизим сифатида шаклланиши ислом банк ташкилотларининг ташкил этилиши билан бошланган. Ислом банклари ривожланиш жараёнида ислом молиявий тамойилларига мос келувчи турли хилдаги янги банк хизмат турлари яратиб келинди. Бундан эса молия соҳасининг бошқа инструментларини шакллантириш учун ўзига хос модель

сифатида фойдаланилди. Натижада сукуклар – исломий қимматли қоғозлар эмиссия қилина бошланди. Бундан ташқари, ислом банк хизматлари ва сукукларнинг ривожланиши исломий суғурта хизматларининг ҳам ташкил этишни тақозо этди [4].

Исломий молиявий активларнинг молиявий секторлар кесимидаги улушида банк хизматлари энг йирик сектор ҳисобланади ва жами активларнинг 70 %ини ташкил этади (3-расм). Ислом молиясида иккинчи йирик йўналиш қимматли қоғозлар сектори бўлиб, ушбу молия бозорининг 19 %ини қамраб олади. Бошқа исломий молия институтлари ҳисобига 5 %, ислом фондлари 4 % ва такофул 2 % улушни ташкил этади. Кейинги вақтларда бошқа секторлар улуши ортиши ҳисобига банк сектори қисқаришини кузатиш мумкин. Бунда исломий қимматли қоғозларнинг ва бошқа исломий молия институтлари ҳиссаси салмоқли ҳисобланади.



3-rasm. Jahonda islomiy moliyaviy aktivlarning moliyaviy sektorlar kesimidagi taqsimoti (2021 yil) [14]

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, islom moliya tizimi nafaqat musulmon mamlakatlarida va hattoki, musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham keng rivojlanib bormoqda. Jumladan, musulmon bo'lmagan mamlakatlarda – G'arbiy Yevropa, AQSh, Kanada va Avstraliyada iste'mol segmenti (musulmon immigrantlarning mahalliy jamoalariga qaratilgan) va korporativ segment (birinchi navbatda Fors ko'rfazining neft qazib chiqaruvchi mamlakatlardan investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan) sifatida faol rivojlanmoqda.

Bu yo'nalishda yuqori muvaffaqiyatga erishgan mamalkat sifatida Buyuk Britaniyani aytishimiz mumkin. Mamlakat aktivlari qiymati 19 milliard dollar bo'lgan 22 ta islom banklari (faqat oltita bank ma'lumotlariga ko'ra) va aktivlari qiymati 300 million dollar bo'lgan 34 ta islom investitsiya fondlari faoliyat yuritmoqda va London fond birjasida umumiy summasi 24 mlrd. dollarga teng 43 ta sukuk chiqarilgan. Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi mavjud bank sektori bozor segmenti uchun jozibador bo'lib, bunda 22 ta islom banklaridan 17 tasi mahalliy an'anaviy banklarning islomiy darchalari va faqat 5 tasi Fors ko'rfazi davlatlarining investorlari tomonidan asos solingan to'laqonli islom banklaridir [15].

Bugungi kunda London islom obligatsiyalari uchun dunyodagi eng yirik bozor hisoblanadi. Bu islom moliyasining global kengayishi, yuridik, buxgalteriya hisobi va moliya injiniringi bo'yicha kuchli salohiyatga ega bo'lgan Buyuk Britaniyaning moliyaviy innovatsiyalar bo'yicha global yetakchi o'rinlari, Yaqin Sharqdagi ortiqcha likvidlik, Yaqin Sharq va Osiyoda mintaqaviy ofislarni yaratish, bozorni o'rganish, mahsulot qatorini takomillashtirish (islomiy darchalar), yagona moliyaviy regulyatorni yaratish - Moliyaviy nazorat qiluvchi organ o'rnini egallagan Xizmatlar organi, islom ipotekalari bo'yicha ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish va islom ipotekalari bo'yicha kompaniyalar sonining oshishi, shuningdek jismoniy shaxslar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish hamda obligatsiyalar tartibini isloh qilish amaliyotlari bilan bog'liq ravishda kechmoqda.

Soliq qonunchiligiga ko'ra, agar banklar islomiy moliyalashti-rishga asosan asbob-uskuna yoki texnologiyani moliyalashtirsa, ularga nisbatan QQS qo'llaniladi yoki islomiy moliyalashtirishda to'lov kechikkani uchun jarima olish mumkin emas, agar intizomga chaqirish maqsadida olinsa ham u pullar alohida hisob varaqqa tushirilib xayriya maqsadida ishlatiladi. Biroq soliq organlari tomonidan bu jarima foyda sifatida ko'riladi va soliqqa tortiladi.

Bundan tashqari, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 52-moddasi 6-bandi qarzlarga doir foizlarni hisoblab chiqarish va ularni bank daromadlari hisob varag'iga kiritishga doir talablarni belgilaydi, ammo bunday yondashuv faqatgina an'anaviy banklarga xos bo'lib, islomiy moliya institutlariga to'g'ri kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2021 yil Oliy Majlisga murojaatida: «O'zbekistonda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi» – deb ta'kidlagan edilar [20].

Shundan so'ng, islomiy moliyalashtirish tizimining huquqiy bazasini yaratish bo'yicha keng ko'lamlı say-harakatlar boshlandi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalash faoliyati to'g'risida”gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Albatta, qonunchilikdagi ushbu o'zgarishlar Islom moliyasi mamlakatimizda huquqiy status olayotganidan darak beradi. Ammo, Islom moliyaviy xizmatlarini ko'rsatish huquqi faqatgina nobank va mikromoliyalash tashkilotlariga berilayotgani Islom moliyasining rivoji uchun to'laqonli yechim emasligini ta'kidlash lozim. Sababi, Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalash institutlarining aktiv hajmi bo'yicha O'zbekistonning moliya sektoridagi ulushi atigi 0,29% ni tashkil qiladi.

Qabul qilingan Qonun ekspertlar guruhi tomonidan o'rganib chiqilgandi va quyidagi sabablarga ko'ra Islom moliyasi rivojiga to'laqonli xizmat qilmaydi degan xulosa berilgan edi:

Qonun loyihasi bo'yicha aholidan omonat qabul qilish va ularni islom moliyasi tamoyillari asosida investitsiya (masalan mudoraba) qilish imkoniyati yo'q;

Islom moliyasi asosiy mahsulotlaridan bo'lgan sheriklik (mushoraka) va talab asosida moliyalashtirish (istisna) faoliyati cheklangan;

Ijara faoliyati cheklangan, xususan jismoniy shaxslarga ijaraga mahsulot berish imkoniyati ko'zda tutilmagan;

Berilishi mumkin bo'lgan maksimal mablag' (50 mln. so'm) tadbirkorlik bilan shug'ullanishga to'liq imkon bermaydi (bu mablag' hatto 5 ming dollarga ham teng emas);

Islom moliyasi tamoyillari asosida uzoq muddatli uy sotib olishni moliyalashtirish (mushoraka mutanaqisa) imkoni mavjud emas [22].

Xulosa

Islom moliyasi ishonch, hurmat, risklarni taqsimlash, majburiyatlarga rioya qilish va foydani adolatli taqsimlash tamoyillariga asoslanadi. Bu islom banklarining o'z faoliyatining yakuniy natijalaridan manfaatdorligini ta'minlaydi, faqatgina o'z foydasini olishga qaratilgan an'anaviy banklardan farqli o'laroq.

Islom bank ishi modeli nafaqat bank bozorining, balki butun moliya bozorining barqaror rivojlanishini shakllantirishga yordam beradigan o'ziga xos xususiyatlar majmuasiga ega. Islom banki institutlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari an'anaviy bank muassasalariga nisbatan ularning afzalliklariga aylanadi. Shuning uchun ham islom banklari o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyati va xalqaro amaliyotga moslashishdagi qiyinchiliklariga qaramay, jahon moliya bozorining faol ishtirokchilariga aylandi. So'ngi yillarda Islom moliyasi nafaqat G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida, balki Markaziy Osiyoda ham rivojlanib bormoqda.

Tadqiqotimiz natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, islom moliyasi O'zbekistonda nafaqat tadbirkorlar uchun va balki jismoniy shaxslar uchun ham zarur bo'lgan yangi sohadir. Muqobil moliyalashtirish mahsulotlarining paydo bo'lishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Biroq, potensial mijozlarning islomiy moliya sohasida tajriba va bilimga ega emasligi, shuningdek, bank-moliya qonunchiligining yetarli darajada takomillashtirilmaganligi tufayli mavjud kutilmalar ijobiy bo'lmasligi mumkin.

Rivojlanayotgan islom moliya tizimiga oid yuqorida qayd etilgan davlatlarning tajribasi, eng avvalo, tegishli me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish, tegishli infratuzilmani shakllantirish, aholiga tushuntirish ishlarini olib borish, investor davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islamic Financial Services Industry (IFSI) Stability Report 2021 https://www.ifsb.org/preess_full.php?id=570&submit=more#:~:text=Bello%20Lawal%20Danbatta%20stated%20that,pattern%20and%20duration%20of%20the
2. [https://uza.uz/uz/posts/islom taraqqiyot bankining toshkentan zhumani_298637](https://uza.uz/uz/posts/islom_taraqqiyot_bankining_toshkentan_zhumani_298637)
3. <https://parstoday.com/uz/news/uzbekistan-i6844>

4. Аброров С.З. Ўзбекистонда сукук – исломий қимматли қоғозларни жорий этиш истиқболлари. 08.00.07-Молия, пул муомиласи ва кредит PhD илмий даражаси диссертацияси /ТДИУ Т; 2020
5. <https://www2.deloitte.com/lu/en/pages/islamic-finance/articles/principles-islamic-finance.html>
6. Gait , A. and Worthington, A. (2008). An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, *International Journal of Social Economics*, 35(11), 783-808.
7. Lewis M.K. and Algaoud L.M. (2001). *Islamic Banking*. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd.
8. Mirakhor, A. and Iqbal, Z. (2011). *An Introduction To Islamic Finance : Theory and Practice*. Singapore: John Wiley & Sons.
9. Christopher G. Cross, Craig R. Nethercott, Harjaskaran Rai and Mohammed A. Al-Sheikh, Latham & Watkins LLP *Islamic Project Finance* Published on 11-Mar-2010. 4 p. Practical Law Publishing Limited and Practical Law Company, Inc.
10. Ботирхўжа Жўраев *Исломий молия асослари* [Матн] / Е.А.Байдаулет. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2019. – 432 б.;
11. Muhammad Jamal Haider, Gao Changchun, Tayyaba Akram, Syed Talib Hussain *Exploring Gender Effects in Intention to Islamic Mobile Banking Adoption: an empirical study* *Arab Economic and Business Journal* Volume 13, Issue 1, June 2018, Pages 25-38
12. ICD-REFINITIV *Islamic Finance Development Report 2021*
13. Viktoriia Stoika *Integration of Islamic banking in the national banking sector: foreign experience* *SHS Web of Conferences* 65, 09004 (2019) M3E2 2019 The 8th International Conference on Monitoring, Modeling & Management of Emergent Economy (M3E2 2019) 29 May 2019 <https://doi.org/10.1051/shsconf/20196509004>
14. *Islamic Finance Development Report 2021*
15. Mozgovyj, O.M., Subochev, O.V., Jurkevych, O.M.: *Suchasnyj stan industriji islamskykh finansiv: statystyka jakisnogo rozvytku (Current state of islamic finance industry: development data)*. *Investyciji: praktyka ta dosvid.* 7, 8–14 (2017)
16. Cambridge Institute of Islamic Finance (Cambridge-IIF), Ajman University Center for Excellence in Islamic Finance (AU-CEIF) *Global islamic finance report 2021*
17. Dilmurod Yusupaliyevich Khujamkulov; Ruhiddin Khusniddin Ogli Zayniddinov *Improving the Use of Islamic Banking Services in Financing Investment Projects in Uzbekistan* *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS (Management, Innovation and Technologies)* ISSN: 2237-0722 Vol. 11 No. 2 (2021) Received: 12.04.2021 – Accepted: 04.05.2021 <http://www.revistageintec.net/>
18. Хорижлик мутахассисларнинг берган маълумотлари асосида Муаллиф томонидан тузилган
19. Lex.uz - Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси асосида муаллиф томонидан тузилди
20. <https://islommoliyasi.uz/uz/islom-moliyasi-2021-sarhisobi/>

21. <https://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/36733/>
22. <https://azon.uz/content/views/islomiy-moliya-hizmatlari-tushunchasi-il>
23. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Kamolov Maqsudjon Murodullo o'gli. Davlat xaridlarini tashkil etishda korrupsiyaga qarshi kurash. Journal of Universal Science Research, 2023/9/22
24. Samadov Ortiq, Muzaffarov Mukhammadjon. Analysis of the Participation of the Republic of Uzbekistan in the Processes of International Economic Integration. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2023/5/13
25. Muhammadjon Muzaffarov. Davlat xaridlarini tashkil etish shakllarining o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 2022/12/31
26. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li O'roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod Baxtiyorovich. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali. Science and education, 2022
27. Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov
28. Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov. BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH ORQALI KORXONA RESURSLARINI BOSHQARISH. Science and education, 2023/10/30
29. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Mavlonov Doston Mavlon o'g'li INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINING O'RNİ VA AHAMIYATI. World of Science, 2023/10/4
30. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Mavlonov Doston Mavlon o'g'li. БЮДЖЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИ ОРҚАЛИ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2023/10/1
31. Mukhammadjon Muzaffarov. Projects formed on the basis of public opinion and financing them in Uzbekistan. World of Scientific news in Science Journal, 2023
32. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, O'sarov Javohir Bahodir o'g. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV MOLIYAVIY STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 2023/6/14
33. УА Артиков, НЕ Джиянова. ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. ББК У. Ят31+ Ч34Я431 А 43
34. Ulug'bek Ortiqov, Ismoil Ismoilov, RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISH SHAROITIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL ETISH. Наука и инновация, 2023/5/4
35. Ulug'bek Ortiqov, Yulduz Nasimova. RISKNI BARATARAF ETISHDA B2B BIZNES MODELINI QO 'LLASH MEХАNIZMLARI. Наука и инновация, 2023/5/7
36. Улуғбек Ортиқов, Суннат Эсанбеков. КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 2023/5/7

37. Исроилова Мухаббат Рустамжон кизи Факторы развития реального сектора экономики и роль инвестиций в него. Golden Brain, 2023/12/25